



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV EVOLYUTSIYASI

Shonazarov Farxod

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-3804-9366

farkhodshanazarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv tizimining evolyutsiyasi va uning institutsional mazmunidagi o'zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar korporativ boshqaruvning yordamchi vositasi emas, balki uning institutsional yadrosi sifatida shakllanayotgani asoslab berildi. Direktorlar kengashining raqamli strategiya, ma'lumotlar siyosati va raqamli risklarni boshqarishdagi rolining kuchayishi alohida yoritilgan. Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarda raqamli korporativ boshqaruvni joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan institutsional, tashkiliy, texnologik va normativ-huquqiy muammolar tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli muhitda korporativ boshqaruvni takomillashtirish boshqaruv qarorlarining shaffofligi, tezkorligi va investitsion jozibadorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada O'zbekiston sharoitida davlat ishtirokidagi korxonalar uchun moslashtirilgan raqamli korporativ boshqaruvning mualliflik yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, raqamli transformatsiya, direktorlar kengashi, raqamli risklar, davlat ishtirokidagi korxonalar, institutsional rivojlanish.

ЭВОЛЮЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Шоназаров Фарход

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье проведён научный анализ эволюции системы корпоративного управления в условиях цифровой экономики и изменений её институционального содержания. Обосновано, что цифровые технологии в современных условиях выступают не вспомогательным элементом, а институциональным ядром корпоративного управления. Особое внимание уделено трансформации роли совета директоров в формировании цифровой стратегии, управлении данными и цифровыми рисками. В работе систематизированы институциональные, организационные, технологические и нормативно-правовые проблемы внедрения цифрового корпоративного управления в компаниях с государственным участием. Полученные результаты свидетельствуют о том, что развитие цифрового корпоративного управления способствует повышению прозрачности, оперативности управленческих решений и инвестиционной привлекательности. Предложен авторский подход к формированию модели цифрового корпоративного управления, адаптированной к условиям Республики Узбекистан.

Ключевые слова: цифровая экономика, корпоративное управление, цифровая трансформация, совет директоров, цифровые риски, компании с государственным участием, институциональное развитие.

EVOLUTION OF CORPORATE GOVERNANCE IN THE DIGITAL ECONOMY

Shonazarov Farxod

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the evolution of corporate governance systems in the context of the digital economy and changes in their institutional framework. The study substantiates that digital technologies are no longer auxiliary tools but have become the institutional core of modern corporate governance. Particular attention is paid to the changing role of the board of directors in shaping digital strategy, data governance, and digital risk management. The paper systematically examines institutional, organizational, technological, and regulatory challenges associated with the implementation of digital corporate governance in state-owned enterprises. The findings indicate that digital corporate governance enhances transparency, improves the timeliness and quality of managerial decision-making, and strengthens investment attractiveness. An original approach to a digital corporate governance model adapted to the conditions of the Republic of Uzbekistan is proposed.*

Keywords: *digital economy, corporate governance, digital transformation, board of directors, digital risks, state-owned enterprises, institutional development.*

Kirish.

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va boshqaruv tizimlarining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari nafaqat operatsion jarayonlarni avtomatlashtiruvchi vosita sifatida, balki strategik qaror qabul qilish, qiymat yaratish va risklarni boshqarishning muhim institutsional omiliga aylanmoqda. Ushbu jarayon korporativ boshqaruv tizimining mazmuni, funksiyalari va institut sifatidagi rolini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi (Vial, 2019). An'anaviy korporativ boshqaruv modeli asosan mulkdorlar va menejment o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini ta'minlash, moliyaviy shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida bu model yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida korporativ boshqaruv retrospektiv hisobotlarga tayanuvchi nazorat tizimidan real vaqt rejimida ma'lumotlarga asoslangan, prognozlash va strategik boshqaruv elementlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimga aylanmoqda (OECD, 2022). Bu holat korporativ boshqaruvni faqat huquqiy yoki tashkiliy mexanizm sifatida emas, balki raqamli iqtisodiyotning muhim institutsional tayanchi sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv evolyutsiyasining muhim jihati direktorlar kengashi roliga namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar direktorlar kengashi endilikda faqat menejment faoliyati ustidan nazorat qiluvchi organ emas, balki raqamli strategiya, ma'lumotlar siyosati va raqamli risklarni boshqarish bo'yicha asosiy qarorlar qabul qiluvchi strategik institutga aylanishi lozimligini ko'rsatmoqda (Tricker, 2019). Kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik qarorlar va sun'iy intellektdan foydalanish bilan bog'liq masalalar korporativ boshqaruvning yangi obyektlari sifatida shakllanmoqda.

Xalqaro amaliyotda raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning ahamiyati kapital bozorlarini rivojlantirish, investitsion ishonchni mustahkamlash va uzoq muddatli qiymat yaratish bilan bevosita bog'liq holda qaralmoqda. Xususan, G20/OECD (2023) Korporativ boshqaruv tamoyillarining yangilangan tahrirlarida raqamlashtirish jarayonlari oshkoralik va hisobdorlikni kuchaytirish imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi risklarni ham yuzaga keltirishi, shu bois direktorlar kengashining mas'uliyati va nazorat mexanizmlari kuchaytirilishi zarurligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, ularning

boshqaruv samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. 2017-yildan boshlab qabul qilingan strategik dasturlar va farmonlarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan (Farmon, 2017). Ushbu jarayonda korporativ boshqaruv evolyutsiyasi davlat aktivlaridan samarali foydalanish, shaffoflikni oshirish va investitsion muhitni yaxshilash bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv evolyutsiyasi masalalari asosan rivojlangan mamlakatlar va xususiy sektor misolida o'rganilgan bo'lib, davlat ishtirokidagi korxonalar hamda o'tish davridagi iqtisodiyotlar sharoitida ushbu jarayonning institutsional va huquqiy jihatlarini yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar joriy etilishi bilan bog'liq mas'uliyat, javobgarlik va risklarni boshqarish mexanizmlarining korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyasi bo'yicha ilmiy bo'shliq mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillar davomida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi korporativ boshqaruv nazariyasida yangi ilmiy paradigmalarining shakllanishiga olib keldi. An'anaviy nazariy yondashuvlardan farqli ravishda, zamonaviy tadqiqotlar raqamli texnologiyalarni korporativ boshqaruvning ajralmas institutsional elementi sifatida ko'rib chiqmoqda (Kraus, 2021).

Raqamli transformatsiya va korporativ boshqaruv o'rtasidagi tizimli bog'liqlikni birinchilardan bo'lib konseptual asoslab bergan olimlardan biri Vial (2019) hisoblanadi. U raqamli transformatsiyani faqat texnologik jarayon emas, balki boshqaruv tuzilmalari, qaror qabul qilish mexanizmlari va tashkilot madaniyatini tubdan o'zgartiruvchi institut sifatida talqin qiladi. Vialning ilmiy yangiligi shundaki, u raqamli boshqaruvni strategik darajada baholash zarurligini asoslab berdi.

Raqamli muhitda direktorlar kengashining roli va kompetensiyalarini o'rganishda Belkhir va Lepetit (2022) tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Ular 2020–2022-yillardagi empirik tahlillar asosida direktorlar kengashida IT va raqamli kompetensiyaga ega a'zolarining mavjudligi kompaniyalarning innovatsion faolligi va bozor qiymatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan isbotlagan.

Sun'iy intellekt va algoritmik qaror qabul qilishning korporativ boshqaruvga ta'siri Zetzsche (2020) tomonidan chuqur o'rganilgan. Uning ilmiy yangiligi shundaki, algoritmik boshqaruv direktorlar kengashi va menejment o'rtasidagi mas'uliyat chegaralarini qayta belgilash zaruratini yuzaga keltiradi. Bu yondashuv raqamli korporativ boshqaruvning huquqiy va axloqiy jihatlarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Raqamli muhitda korporativ boshqaruv va ESG integratsiyasi masalasida Serafeim hamda Ioannou (2021) tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar muhim ilmiy yangiliklarni taklif etadi. Ularning 2020–2023-yillardagi ishlari raqamli boshqaruv vositalari ESG ko'rsatkichlarining aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirishini empirik asoslab berdi.

Platformaviy iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruvning o'zgarishini Kumar va Gawer (2021) o'rganib, raqamli platformalarda an'anaviy aksiyadorlik modeli o'rniga ekotizimga asoslangan boshqaruv modeli shakllanayotganini ilmiy asoslagan. Bu yondashuv raqamli davlat platformalari uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Kiberxavfsizlik va raqamli risklarni korporativ boshqaruvning strategik elementi sifatida baholagan Buckley (2022) so'nggi tadqiqotlarida direktorlar kengashining kiberxavfsizlik bo'yicha javobgarligini institutsional darajada mustahkamlash zarurligini asoslaydi. Uning ilmiy yangiligi raqamli risklarni moliyaviy risklar bilan tenglashtirishda namoyon bo'ladi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda raqamli muhitda korporativ boshqaruv masalalarini o'rganishda Claessens va Feijen (2021) tomonidan olib borilgan yangi empirik tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Ular raqamlashtirish institutsional islohotlar bilan uyg'un olib borilmagan taqdirda, davlat ishtirokidagi korxonalarda boshqaruv samaradorligi pasayishini ko'rsatgan.

Huquqiy nuqtayi nazardan, raqamli aktivlar va ma'lumotlarga egalik huquqi masalasini Pistor (2019) 2019–2022-yillardagi ishlarida korporativ boshqaruvning yangi huquqiy paradigmasi sifatida asoslab berdi. Bu yondashuv raqamli davlat korxonalari uchun alohida dolzarbdir.

O'zbekiston olimlarining so'nggi yillardagi ilmiy ishlari raqamli iqtisodiyot va korporativ boshqaruv masalalarini tobora faolroq yoritib bormoqda. Biroq mahalliy adabiyotlarda raqamli korporativ boshqaruv ko'proq amaliy muammolar va institutsional islohotlar doirasida talqin qilinadi. Xususan, Abdunazarova (2022) o'z tadqiqotida korporativ boshqaruvni raqamlashtirish jarayonida xorijiy tajribani o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Muallif raqamli boshqaruv instrumentlari (elektron hujjat aylanishi, masofaviy yig'ilishlar, axborotlarning oshkoraligi) boshqaruv samaradorligini oshirishini ko'rsatadi, biroq ularning institutsional jihatdan yetarli darajada mustahkamlanmaganini qayd etadi.

Omonkulov (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda korporativ boshqaruvni raqamlashtirishning muammolari va istiqbollari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini tezlashtirishi, lekin menejment kompetensiyalari yetarli bo'lmasa, kutilgan natija bermasligi ta'kidlanadi. Ushbu yondashuv raqamli korporativ boshqaruvni aynan menejment modeli sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy darslik va o'quv-uslubiy manbalarda ham raqamli boshqaruv elementlari aks etmoqda. Suyunov va Elmirzayev (2021) tomonidan tayyorlangan "Korporativ boshqaruv" darsligida aksiyadorlar bilan elektron aloqa, elektron ovoz berish va masofaviy yig'ilishlar kabi instrumentlar zamonaviy korporativ boshqaruv amaliyotining tarkibiy qismi sifatida keltiriladi. Bu manbalar raqamli korporativ boshqaruvning amaliy jihatlarini yoritadi, biroq ularni yagona konseptual menejment modeli sifatida umumlashtirish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar raqamli muhitda korporativ boshqaruv masalasining dolzarbligini tasdiqlagan holda, O'zbekiston sharoitida davlat ishtirokidagi korxonalar uchun moslashtirilgan, institutsional va normativ jihatdan asoslangan yagona raqamli korporativ boshqaruv modelining yo'qligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Korporativ boshqaruv evolyutsiyasi iqtisodiy tizimlarning rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanib kelgan bo'lib, uning mazmuni va funksional chegaralari vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgargan. An'anaviy korporativ boshqaruv modeli dastlab mulkdorlar manfaatlarini himoya qilish va menejment faoliyati ustidan nazoratni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsa, bugungi raqamli muhitda u strategik qaror qabul qilish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv va raqamli risklarni boshqarish funksiyalarini ham o'z ichiga oluvchi kompleks institutga aylandi.

Evolutsiyaning birinchi bosqichida korporativ boshqaruv asosan agentlik muammolarini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, direktorlar kengashi va audit mexanizmlari boshqaruvning asosiy vositalari sifatida shakllandi. Ushbu bosqichda boshqaruv jarayonlari ko'proq retrospektiv tahlilga, ya'ni moliyaviy hisobotlar va o'tgan davr natijalariga asoslangan edi. Raqamli texnologiyalarning cheklanganligi sababli axborotlar kechikkan holda taqdim etilar, bu esa qaror qabul qilish samaradorligini pasaytirardi.

Ikkinchi bosqichda korporativ boshqaruv institutlari kapital bozorlarining rivojlanishi va investorlar rolini kuchayishi bilan takomillasha boshladi. Ushbu davrda shaffoflik,

axborotlarni oshkor qilish va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etdi. Biroq, boshqaruv jarayonlari hanuz an'anaviy usullarga tayangan bo'lib, texnologiyalar yordamchi vosita sifatida qo'llanildi.

Uchinchi, ya'ni hozirgi bosqichda korporativ boshqaruv raqamli transformatsiya ta'siri ostida tubdan yangi mazmun kasb etdi. Katta hajmdagi ma'lumotlar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan monitoring va platformaviy boshqaruv modellarining joriy etilishi boshqaruv qarorlarini real vaqt rejimida qabul qilish imkonini yaratdi. Natijada, korporativ boshqaruv retrospektiv nazoratdan proaktiv va prediktiv boshqaruv modeliga o'ta boshladi. Ushbu evolyutsiya ayniqsa davlat ishtirokidagi korxonalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko'p hollarda sekin va markazlashgan boshqaruv tizimlariga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda korporativ boshqaruvni joriy etish jarayoni bir qator tizimli muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Ushbu muammolarni shartli ravishda institutsional, tashkiliy, texnologik va normativ-huquqiy guruhlariga ajratish mumkin.

1-jadval.

Raqamli muhitda korporativ boshqaruvning asosiy muammolari

Muammo	Mazmuni
Institutsional	Raqamli texnologiyalar joriy etilayotgan bo'lsa-da, korporativ boshqaruv institutlari, xususan direktorlar kengashi va ijroiya organlarining vakolatlari raqamli sharoitga mos ravishda qayta belgilab olinmagan. Amaliyotda raqamli tizimlar texnik darajada mavjud bo'lib, ular asosida qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas'uliyat kim zimmasida ekanligi aniq belgilanmagan.
Tashkiliy	Ko'plab korxonalarda, ayniqsa davlat ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlarida direktorlar kengashi a'zolarining raqamli kompetensiyalari yetarli emas. Natijada, raqamli ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ular strategik qaror qabul qilish jarayoniga to'liq integratsiya qilinmaydi. Bu holat raqamli transformatsiyani faqat texnik modernizatsiya darajasida qoldirib qo'yadi.
Texnologik	Raqamli boshqaruv tizimlari ko'pincha bir-biri bilan integratsiyalanmagan bo'lib, ma'lumotlar fragmentatsiyalashgan holatda saqlanadi. Bu esa korporativ boshqaruvning yagona axborot makonini shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik masalalarining yetarli darajada e'tiborga olinmasligi raqamli risklarni keskin oshiradi.
Normativ-huquqiy	Amaldagi korporativ huquq normalari an'anaviy boshqaruv modeliga moslashgan bo'lib, algoritmik qaror qabul qilish, sun'iy intellektdan foydalanish va raqamli aktivlar bilan bog'liq masalalarni yetarli darajada qamrab olmaydi. Bu holat raqamli muhitda boshqaruvning huquqiy noaniqligini yuzaga keltiradi.

Manba: muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi muammolar tahlili asosida raqamli muhitda korporativ boshqaruvni takomillashtirish uchun bir qator ustuvor masalalarni hal etish zarurligi aniqlanadi.

Birinchidan, korporativ boshqaruvning institutsional modeli raqamli muhitga mos ravishda qayta ko'rib chiqilishi lozim. Direktorlar kengashi darajasida raqamli strategiya, ma'lumotlar siyosati va raqamli risklarni boshqarish bo'yicha aniq vakolatlar belgilanishi zarur. Bu boshqaruv qarorlarining shaffofligi va mas'uliyatini oshiradi.

Ikkinchidan, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Direktorlar kengashi va yuqori menejment tarkibida raqamli transformatsiya, IT va ma'lumotlar tahlili bo'yicha bilimga ega mutaxassislar ulushini oshirish talab etiladi. Bu raqamli boshqaruvni formal jarayondan real strategik vositaga aylantiradi.

Uchinchidan, korporativ boshqaruvda raqamli risklarni boshqarish tizimini shakllantirish lozim. Kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va algoritmik xatoliklar moliyaviy risklar bilan teng darajada strategik risklar sifatida baholanishi zarur.

To'rtinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish talab etiladi. Raqamli boshqaruv sharoitida mas'uliyat, javobgarlik va qaror qabul qilish mexanizmlarini aniq belgilovchi huquqiy normalar ishlab chiqilishi lozim.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan tahlillar asosida raqamli muhitda korporativ boshqaruvning mualliflik yondashuvi shakllantirdik. Ushbu yondashuvga ko'ra, raqamli texnologiyalar korporativ boshqaruvning yordamchi elementi emas, balki uning institutsional yadrosi sifatida qaraladi. Mualliflik yondashuvimizning asosiy g'oyasi shundan iboratki, korporativ boshqaruv samaradorligi endilikda faqat tashkiliy tuzilma yoki huquqiy normalar bilan emas, balki ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish sifati bilan belgilanadi. Raqamli muhitda direktorlar kengashi strategik qarorlarni retrospektiv hisobotlar asosida emas, balki real vaqt rejimidagi analitik ma'lumotlar asosida qabul qilishi zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli korporativ boshqaruv modeli davlat ishtirokidagi korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini ta'minlash hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu model raqamli risklarni boshqarish va mas'uliyat chegaralarini aniq belgilash orqali boshqaruvning barqarorligini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlil va natijalar muhokamasi shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv evolyutsiyasi raqamli muhitda yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati texnologiyalarni joriy etishdan ko'ra, ularni institutsional, tashkiliy va huquqiy jihatdan to'g'ri integratsiya qilishga bog'liq. Mazkur maqolada ishlab chiqilgan mualliflik yondashuvi O'zbekiston sharoitida raqamli muhitda korporativ boshqaruvning samarali modelini shakllantirish uchun ilmiy va amaliy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash jarayonlarida qo'llanishi mumkin bo'lgan muhim ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Abdunazarova (2022) *'Problemy i perspektivy tsifrovizatsii korporativnogo upravleniya v Respublike Uzbekistan.'* Oriental Renaissance.
- Belkhir and Lepetit (2022) *'Digital expertise on boards and firm performance.'* Journal of Corporate Finance.
- Buckley (2022) *'Cybersecurity governance and the board.'* Harvard Business Review.
- Claessens and Feijen (2021) *'Digitalization and corporate governance in emerging markets.'* World Bank Policy Research.
- Gawer (2021) *Platforms and Innovation.* Edward Elgar.
- Hickman and Petrin (2021) *'Trustworthy AI and Corporate Governance.'* European Business Organization Law Review.
- Kraus et al. (2021) *'Digital transformation: An overview.'* Journal of Business Research.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2017) PF-4947-son Farmon, Harakatlar strategiyasi.
- OECD (2022) *Digitalisation and Corporate Governance.* Paris: OECD Publishing.
- OECD (2023) *G20/OECD Principles of Corporate Governance.* Paris: OECD Publishing.
- Omonkulov (2025) *'Problemy i perspektivy tsifrovizatsii korporativnogo upravleniya v Uzbekistane.'* Journal of New Century Innovations.
- Pistor (2019) *The Code of Capital.* Princeton University Press.
- Serafeim and Ioannou (2021) *'ESG, digital reporting and governance.'* Management Science.
- Suyunov and Elmirzayev (2021) *Korporativ boshqaruv.* Toshkent.
- Tricker (2019) *Corporate Governance: Principles, Policies and Practices.* Oxford Univer. Press.
- Vial (2019) *'Understanding digital transformation: A review and a research agenda.'* Journal of Strategic Information Systems.
- Zetzsche et al. (2020) *'The future of corporate governance powered by AI.'* European Business Organization Law Review.